



ABDULHAMID MAJIDIY PUBLITSISTIKASINING XUSUSIYATLARI

Yuldosheva Madina Alimjon qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyot universiteti stajor-tatqiqotchisi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10- November 2023 yil

Ma'qullandi: 15- November 2023 yil

Nashr qilindi: 20-November 2023 yil

KEY WORDS

matbuot, teatr, publitsistika, revolyutsiya, hajv, gazeta, adabiy tadqiqot, "Qizil qalam", "Ozod Buxoro", "Zarafshon" gazetalari, felyeton.

ABSTRACT

Ma'lumki, XX asr birinchi choragi Turkiston xalqi hayotida kutilmagan hodisalarga to'la davr bo'ldi. Jahon va birodarkushlik urushlari, turli xarakterdagi "inqiloblar", dunyoning boshqa xalqlari bilan iqtisodiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy aloqalar, ruhiy va jismoniy qatag'onlar hamma-hammasi shu qisqa vaqt ichida bo'lib o'tdi. Jadidchilik ham shu davrda shakllandi, rivojlandi va intiho topdi. Shu davrda yashab ijod qilgan, o'zining ijodiy-individualligiga ega bo'lgan yozuvchilardan biri sanalmish Abdulhamid Majidiy merosining o'rganilishi lozim bo'lgan mavzulardan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada keng qamrovli yozuvchining publitsistika yo'nalishi, yaratgan asarlari va davr muxiti qisqacha bayon qilingan. Muallif haqida zamondoshlari fikrlari keltirib o'tilgan.

Sovet adabiyoti namoyondasi, XX asrning iste'dodli satirik yozuvchisi, sinchkov adabiyotshunos, faol matbuotchi va teatr tashkilotchilaridan biri sifatida e'tibor topgan, siyosiy o'tkir, g'oyaviy mukammal asarlari, publitsistik maqolalari, xususan satirik ijodi bilan "...Sovet Hokimiyatining ichki dushmanlariga tinchlik bermay qo'ygan qudratli kuchga aylangan" yozuvchilardan biri Abdulhamid Majidiy edi. U 20 – 30-yillarda o'zining jo'shqin ijodi bilan revolyutsiya yutuqlarini, sotsialistik qurilish g'oyalarini yonib tarannum etgan shoir edi.¹ Bu hajv ustasi haqida taniqli yozuvchimiz Abdulla Qahhor ham to'lqinlanib gapirgan edi, "Majidiyning "Xandon lolalar" kitobi, – degan edi u, – 30-yillar adabiyotida hammani quvontirgan edi, uning hajvchilikdagi so'z ustaligiga tahsinlar aytgan edik. Hajviy she'rlarini yodlab olgandik. Nega hozirgi kitobxonlar uning she'rlarini emas, o'zini ham bilmaydilar?.. Bildirish kerak, asarlarini qayta nashr ettirish kerak... Uning hajviy she'rlari hozir ham o'z qiymatida turibdi, hozir ham zarur she'rlardir".²

Majidiy Sharqning buyuk siymolari Navoiy va Firdavsiydan tortib to Pushkin, Tolstoy, Shchedrin va Chexov kabi rus yozuvchilarining asarlarini katta qiziqish bilan mutolaa qiladi. Natijada bu uning adabiy-ijtimoiy faoliyatida juda katta rol o'ynaydi. U hali Navoiy nomidagi maktabda ishlab yurgan chog'idayoq, shu yerda chiqarilgan "Inqilob ovozi" qo'lyozma gazetasi

¹Мамарасул Бобоев. "Абдулҳамид Мажидий (Абутанбал)", "Ўзбек тили ва адабиёти", 1968, 1-сон, 27-бет.

²Abdulla Qodiriyning 70 yilligiga bag'ishlangan anjumanda so'zlagan nutqi stenogrammasidan.

tahrir hayatini boshqaradi va gazetani butun uezdda ro'y berayotgan voqealar xabarchisi darajasiga ko'taradi. Uning har bir yangi sonini Majidiy xalq ko'p to'planadigan joylarda, bozor va choyxonalarda o'qib berishni tashkil qiladi, xalqni do'st bilan dushmani farq qilishda xushyorliklarini oshirishga da'vat qiladi. Majidiy sotsial hayot yangiliklarini propaganda qilish, kamchiliklarni bartaraf etish uchun matbuotdan minbar sifatida foydalanishning ibratli namunasini ko'rsatdi. Uning yuksak g'oyalar bilan sug'orilgan, badiiy pishiq she'r va hikoyalari, felyeton va pamfoletlari "Abutanbal", "Chaqmoq", "Kattaqo'rg'onlik" kabi taxallus va boshqa imzolar bilan viloyat hamda respublika gazeta, jurnallarida tez-tez bosilib turardi. Uning nomi xatto Ozarbayjonda ham ma'lum edi. Chunki Majidiy "Mulla Nasriddin" (Baku) satirik jurnalining ham aktiv mualliflaridan sanalardi.³

Yozuvchining Samarqandda o'tgan yillari alohida e'tiborga molikdir. O'z faoliyatini 1925-yilda "Zarafshon" gazetasida boshlagan ijodkor o'zining bir qancha yirik asarlarini yaratadi. O'sha vaqtlarda Samarqandda katta adabiy muhit hukmron edi. Bu yerda Sadriddin Ayniy va Hamzani, Abdulla Qodir va G'afur G'ulomni, qancha-qancha rus olimlarini, shoir va yozuvchilarini deyarli har kuni uchratib, ular bilan muloqotda bo'lish mumkin edi. "Zarafshon" gazetasi redaksiyasi adabiy gurunglar markazida aylandi. Adabiyot va badiiy ijod masalalari ustida tez-tez bahs va munozaralar bo'lib turardi, o'zaro tortishuv va kurashlar hukm surardi. Inqilob alangalari og'ushida o'zligini tanigan ijodkorlar har qanday qarshilik va to'siqlarni mardona yengib, porloq kelajak sari dadil qadam tashlardilar. Ana shu holatni Abdulhamid Majidiy faoliyatida ham yaqqol ko'ramiz. Uning "Abutanbal", "Afandi", "Chaqmoq", "Kattaqo'rg'onlik", "A. M." kabi doimiy va o'tkinchi taxalluslar bilan bitilgan lirik yoki satirik she'rlari, hikoya va felyetonlari, ilmiy-adabiy maqolalari "Zarafshon" gazetasi, "Mashrab" va "Mushtum" xajviy, "Maorif va o'qituvchi", "Yer yuzi", "Alanga" ijtimoiy-siyosiy, adabiy-badiiy jurnallarda tez-tez ko'zga tashlanib turardi.⁴

A. Majidiyning o'sha davrdagi ijodiyotida satirik poeziya, badiiy publitsistika va adabiy tadqiqot janri namunalarini kuzatish mumkin. U har uch yo'nalishda ham sermaxsul ijod qildi. Uning 1926-yil may oyining birinchi yarmidayoq "Zarafshon" gazetasida e'lon qilingan publitsistik maqolalariga nazar tashlaylik: "Birinchi may bayrami", "Qizil matbuotimiz", "Ziyolilar masalasi tevaragida", "Dehqonning omonat sandig'i", "Ortiqcha chiqimlarga qarshi kurashaylik", "Kurash qizib boradir"... Bu maqolalar partiyaning xalqaro ishchilar harakati birligini mustahkamlash, mamlakatda xalq xo'jaligini sotsialistik asosda qayta qurish, madaniy qurilishni avj oldirish, ziyolilar masalasiga oid ko'rsatmalarini qamrab olishi bilan xarakterlanadi. Shu kabi fikr va g'oyalar yozuvchining "Yalg'onchi-ayg'oq", "Boylarning hasrati", "Istar ko'ngil", "Chemberlenga hadiyam", "Chiqdi gazetdan" kabi o'nlab puxta, aniq, siyosiy o'tkir satirik she'rlari va qator adabiy tadqiqot ishlarida ham olg'a surilgan.⁵

Majidiyning ilmiy ziyolilarga xos siyosiy hushyorligi, teran bilimdonligi uning gazetachilikdagi faoliyatida ayniqsa yaqqol namoyon bo'la boshlaydi. Shuning uchun

³ Абдулҳамид Мажидий. Танланган асарлар. Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент.- 1974. 6-бет.

⁴ Самариддий Сирожиддинов. Адабий портрет. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент.- 1974. 18-бет

⁵ Самариддий Сирожиддинов. Адабий портрет. Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент.- 1974. 19-бет.

respublika partiya Markaziy komiteti uni olti oy muddatga, o'z faoliyatini ancha bo'shashtirib qo'ygan «Ozod Buxoro» gazetasiga mas'ul muharrir sifatida yuboradi. Gazetaning 1926 yil 2-iyunidan 1927 yilning 19-yanvarigacha bo'lgan sonlari A.Majidiy imzosi bilan chiqadi. Shu davrda Majidiy gazetasining shakl va mazmunan tubdan yaxshilanishiga erishadi. Muxbirlar bilan ishlashni yaxshilash, malakali jurnalist kadrlarni ko'paytirish uchun kurashadi.

Abdulhamid Majidiy Buxoroda faqat gazeta ishi bilan band bo'lib qolmay, odatdagiday badiiy adabiyot masalalari bilan ham jiddiy shug'ullandi. Samarqand yozuvchilarining «Qizil qalam» uyushmasi ishlariga qatnashib turdi. Uyushmaning har bir yaxshi tashabbusini propaganda qilishga e'tibor berdi. Jumladan, «Ozod Buxoro»ning 1926-yil 9-dekabr sonida «Qizil qalam» uyushmasiniig barcha proletar yozuvchilariga murojaatini bosib chiqardi. Xalq og'zaki ijodi materiallarini to'plash va o'rganish haqida yirik maqolalar bilan chiqishlar qildi, «Buxoroda bir javlon», «Viloyatning olg'a qadami» kabi o'nlab publitsistik maqolalar, «Xalq maqollari - bir olam xazina», «Turdi - Subxonquli davrining xalq shoiri» singari ilmiy-adabiy maqolalar va ko'plab lirik hamda satirik she'rlar yaratdi. Majidiy Buxoroda uzoq ishlamadi. Lotin xarfida «Alanga» nomida yangi jurnal chiqarishga tayyorgarlik ko'rish munosabati bilan tajribali jurnalist sifatida yana Samarqandga chaqirib olinadi.⁶

1929-yilga kelib yozuvchi partiya topshirig'i bilan «Qizil O'zbekiston» gazetasida maxsus muxbir sifatida faoliyat boshlaydi va o'zining «Qayliq» hikoyasi, «Issiq qo'ynimizagi ilon» felyetonlarini yozadi. 1930-yilning oxirlarida esa Majidiyga yangi topshiriq – Xivada professional teatr tashkil etish vazifasi yuklatiladi. Sharoit og'ir va qiyinchiliklar yetarli edi. Ammo shunga qaramay 1931-yilda Xorazm okrug davlat teatri tashkil etildi. U teatrni tashkil etib, to'xtab qolmay, yillar davomida unga aktyorlarni o'zi qishloqma-qishloq, maktabma-maktab yurib olib kelib bir joyga yig'di. Buni teatr a'zolarining suhbatlari va ma'lumotlaridan ham ko'rish mumkin.

Majidiy asarlari son jihatdangina emas, balki sifati bilan ham o'z davrining durust asarlari sanalar, o'quvchilar tomonidan qizg'in kutib olinardi. Buni o'sha yillar matbuotida e'lon qilingan taqrizlar, bildirilgan fikrlar ham tasdiqlaydi. Abdulla Qahhor satirachiligimiz haqida mulohaza yuritilgan bir maqolasida badiiy san'atlar va o'xshatishlar haqida fikr yuritib, Majidiy mahorati xususida maroq bilan gapiradi. Qahramonimiz satirik shoir, dramaturg, ajoyib hikoyanavis, publitsistika jonkuyari, sermahsul, ko'pqirrali ijodkordir. 30-yillar ijodining eng gullab-yashnagan davri bo'ldiki, uning matbuot sahifalarida ko'rinmay qolgan kunlari kamdan-kam bo'lardi. Ketma-ket kitoblari nashr yuzini ko'ra boshladi, 1935-yilda «Qaldirg'och» nomli, 1937-yilda «Hangoma» hajviy hikoyalari to'plami kitobxonlarga taqdim etildi.

Majidiy ijodi u qadar katta davrni qamrab olmasa-da, qilingan ishlar hajmi ancha katta. Bu merosni yanada kengroq o'rganish, o'quvchilarga manbalarni yetkazish, ijodi batafsil yoritilishi har bir adabiyotshunosning ulkan vazifalaridan biridir. Shu nuqtai nazardan qarasak, hali Abdulhamid Majidiy ilmiy tafakkuri va ulkan merosi to'liq ochib berilmaganiga, sohada muammolar borligiga amin bo'lamiz. Xususan, o'zbek publitsistikasi tarixini tadqiq etishda Majidiy ishlab chiqqan o'ziga xos metod va printsiplar, ularni yuzaga keltirgan asoslar olimning estetik qarashlari va g'oyalari bilan uyg'unligi o'rganilmog'i lozim.

⁶Самариддий Сирожиiddинов. Адабий портрет. Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти. Тошкент.- 1974. 22-бет.

Adabiyotlar:

1. Samariddin Sirojiddinov. Abdulhamid Majidiy. Adabiy portret. Toshent, G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1982. – 120 b.
2. Abdulxamid Majidiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1974. – 156 b.
3. Samariddin Sirojiddinov. Lenin yo'li. Gazeta. Samarqand. 1990 y, 12 yanvar №8. 4-b.
4. Abdulhamid Majidiy. Tanlangan asarlar. Toshkent, "Ma'naviyat" 2000. – 1937 b.
5. Abdulhamid Majidiy. Tanlangan asarlar. Ko'ngil orzulari. T., Ma'naviyat, 2000. – 160 b.
6. Jo'raqulov Uzoq Haydarovich. Fitratning tadqiqotchilik mahorati. Dissertasiya. Toshken, 1998.



**INNOVATIVE
ACADEMY**